

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

O'ZBEKISTON OLIMPIYA HARAKATIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING ASOSIY YO'NALISHLARI, MAQSAD VA VAZIFALARI

10.53885/i9142-8604-9955-a

Mambetov Bayram Jaksimuratovich, Nukus davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston olimpiya harakatida pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston olimpiya harakati, sport musobaqalari, jismoniy faoliyat, sportni rivojlantirish.

O'zbekiston sporti 50-60 yillardan boshlab qiyinchiliklar bilan xalqaro maydonga asta-sekin bo'lsada dadil qadam qo'ya boshladi.

Respublikamizning ko'pgina vakillari xalqaro sport anjumanlarida ajoyib muvaffaqiyatlarga erishdilar. O'zlari erishgan yutuqlari bilan Respublika ravnaqini ochiq namoyish qildilar.

Sport gazetasining 1995 yil 28 aprel 17-sonida quyidagilar haqida bayon qilingan edi: Boks bo'yicha birinchi jahon chempioni R.Risqievning yulduzi sport osmonida ravshan porladi. Jahon chempionlaridan Bobomurod Fayziev, Sayfiddin Xadiev, Sobir Qurbonov (sambo kurashi), Sobir Ro'ziev (qilichbozlik), Mamajon Ismoilovlarning (ot sporti) nomi dunyo uzra yangradi. Sportning turli sohalari bo'yicha mana bu sportchilarning: Jamoliddin Abdujabborov, Erkin Xoliqov, Isroil Isoqov, Komil Fatxulinlarning nomi jahonga tanildi. Endilikda O'zbekiston sportchilari sobiq tuzum davrida ishtirok eta olmagan barcha Olimpiya o'yinlarida qatnashish sharafiga ega bo'lmoqdalar. Respublikamizning 80 olimpiyadachilari Xelsinkidan to Sidneygacha mamlakat sport sharafiga munosib himoya qildilar. O'zbekistonning 9 ta olimpiyadachilari Janubiy Koreyada 5 ta olimpiya medalini qo'lga kiritdilar. A.S.Fadzaev va M.X.Xadarsev erkin kurash bo'yicha yuksak olimpiya mukofotiga erishdilar. R.A.Gataulin langar bilan sakrashda va N.N.Muhammadiyorov shtanga bo'yicha kumush medallar sovrindori bo'lishdi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng sobiq ittifoq terma jamoasi tarkibiga kiradigan to'siqlar bartaraf etildi.

Mustaqil Respublikamiz vakillari qisqa vaqt ichida xalqaro musobaqalarda ajoyib g'alabalarga erishdilar. Lina Cheryazova fristayl bo'yicha jahon chempionati va kubogi, qishki olimpiyada o'yinlari g'olibi Hikmatillo Ahmedov boks bo'yicha jahon chempionatida 2-o'rinni, Botir Mamedov taekvando bo'yicha Osiyo va Tinch okean bo'yi chempionati g'olibi, Sergey Nodirxonov jahon chempionatida 3-o'rinni, Ramil Ismoilov erkin kurash bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon birinchiligi g'olibi, Navro'z Usmonov yunon-rum kurashi bo'yicha jahon birinchiligida 2-o'rinni, Urol Turaev milliy kurash bo'yicha Prezident sovrini sohibi YULIYA YANKINA sambo bo'yicha ikki karra jahon chempioni, Oksana CHUSOVITINA sport gimnastikasi bo'yicha jahon chempionatida 3-o'rinni, Toymurod Urusov erkin kurash bo'yicha jahon chempioni, Zokirjon Sharipov sambo bo'yicha jahon chempionati g'olibidir.

1994 yil 26 sentyabrda Respublika Vazirlar Mahkamasida Xirosimada bo'ladigan XII Osiyo o'yinlariga jo'nab ketayotgan O'zbekiston sportchilari delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda yosh mustaqil davlatimiz vakillari Osiyo qit'asidagi bu yirik sport musobaqalarida birinchi marta ishtirok etayotgani alohida ta'kidlandi. Mazkur anjumanda qatnashgan Bosh vazir Osiyo o'yinlari qatnashchilariga Prezidentimiz ularga mustahkam sog'lik, baxt-saodat, Yaponiyadagi musobaqalarda katta muvaffaqiyatlar tiladi. Osiyo o'yinlari tashqilotchisi 1949 yil 13 fevralda ta'sis etilgan Osiyo o'yinlari federatsiyasidir. Uning Nizomi Olimpiya g'oyalari asosida tuzilgan. Rasmiy tili ingliz tili hisoblanadi. Har bir mamlakat qaysi turlarda ishtirok etishini o'zi tanlaydi. lekin delegatsiyaning tarkibi tashkiliy qo'mita va Osiyo Olimpiya qo'mitasi belgilagan sonidan oshib ketmasligi lozim.

Qit'amizning kamida 6 mamlakatida ommalashgan, ularning 4 tasidan vakillar ishtirok etgan taqdirda, bu sport turi Osiyo o'yinlari dasturiga kiritiladi. Musobaqalarda yuqori o'rinlarni egallaganlarni taqdirlash marosimida sovrindor sportchilar sharafiga davlatlarning bayroqlari ko'tariladi hamda g'oliblar mamlakatining madhiyasi yangraydi. Yurtimizning shunqorlari birinchi marta sportning 24 turida (120 sportchi) qatnashdilar. Ular bu musobaqalarda jasorat, mardlik ko'rsatib davlatimiz obro'sini jahonga taratdilar. Bizning sportchilar 2-16 oktyabr kunlari Xirosima shahrida XII Osiyo o'yinlarida sportning 34 turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda qatnashib, ajoyib g'alabaga erishdilar. Sportchilarimiz 10 ta "Oltin", 11 ta "Kumush" va 19 ta "Bronza" medallariga sazovor bo'lishib, umumjahon hisobida 42 davlat vakillari o'rtasida faxrli 5-o'rinni egallashdi. Kanoe va baydarka bo'yicha sportchilarimiz yuksak natijalarga erishdilar. Ivan Kireev jasorat namunasini ko'rsatdi. Uning bir o'zi uch oltin medalga sazovor bo'ldi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Qadimda yunon xalqi Olimpiya shahrida ommaviy musobaqalar o'tkazishi bilan zamonaviy olimpiadaga asos solingan deyish mumkin. Shu ma'noda bizga omad kulib boqdi, chunki turon zaminida birinchi marta Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tasarrufida o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo o'yinlarini uyushtirish vatandoshlarimiz zimmasiga tushdi. Ona Vatanimiz mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan vaqt davomida Respublikamiz ko'plab yirik xalqaro turnirlar maskani bo'lib qoldi. Ayniqsa milliy kurash, tennis, futbo bo'yicha uyushtirilgan xalqaro turnirlarning o'tkazilayotganligi va milliy qadriyatlarimiz tiklanayotganligi sportimiz taraqqiyotini, yurtimizdagi osoyishtalikni namoyish etmoqda. SHuni alohida ta'kidlash lozimki Osiyo va dunyo sporti tarixida joy oladigan bunday nufuzli musobaqalarni o'tkazishga mustaqilligimiz sharofati ila muyassar bo'lib turibmiz. Maqsadi mohiyati jihatidan bunaqa salohiyatli sport bayrami Respublikamizda ilk bor o'tkazilayotir.

XXVIII Olimpiada o'yinlarida ham yurtlarimizdan Yunon-Rum kurashi bo'yicha Aleksandr Doktorshvili oltin medal, erkin kurash bo'yicha Magomed Ibragimov kumush medal, Artur Taymazov oltin medal, bokschilarimizdan O'tkirbek Haydarov bronza, Bahodirjon Sultonov ham bronza medallarini qo'lga kiritdilar. XXVIII Olimpiada o'yinlarida (Gretsiya) jahonning 202 mamlakat vakillari qatnashdi. Umum jamoa hisobida O'zbekiston sportchilari 34-o'ringa chiqib olishdi.

Jismoniy tarbiya va sport ishlarini, kishilarni jismoniy kamol toptirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga tayyorlash omilidir. O'zbekiston mustaqil deb e'lon qilingandan keyin o'tgan davr mobaynida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan barcha tadbirlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Respublikamizda jismoniy tarbiya sohasida inson hayotining barcha davrlarini qamrab olgan o'ziga xos tizimi shaqlanmoqda. Biroq hamma narsa allaqachon bajarildi, barcha vazifalar hal qilindi, qiyinchiliklar bartaraf etildi degan xulosaga kelish noto'g'ri bo'lar edi.

Biz jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish yo'lining boshida turibmiz. Hali oldimizda aholini jismoniy jihatidan rivojlantirishning jahon andozasi darajasiga olib chiqish, yuksak darajadagi mehnat qobiliyatini ta'minlash, harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni chiniqtirish, kasalliklarga chalinishning oldini olish, xalqaro sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishdek muhim vazifalar turibdi. Har bir xalqning o'z milliy urf-odat va an'analari bor. Turon zamini xalqlarining an'analari qadimiyligi va rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi.

Jahon tajribalari bilan qiyoslaydigan bo'lsak, eng ilg'or mamlakatlarning yetakchi sohalarigina boshlang'ich davrida shunday shiddatli yuksalishga ega bo'lgan. Bu xorijlik mutaxassislarining e'tirofi.

"Kurash" – XXI asr sporti degan iborani ham ilk bor o'zbek kurashining jonkuyarlaridan biri Evropa Dzyu-do ittifoqi Prezidenti, Gollandiyalik Frax Xoogendayk janoblari tilga oldilar. Binobarin bugungi kunga kelib jahonning 5 ta qit'asidan yuzga yaqin mamlakatda "kurash" tan olindi, ularning aksariyatida kurash federatsiyalari tuzildi. Evropa, Osiyo, Janubiy Amerika qit'alarining konferensiyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shimoliy Amerika va Afrikada "kurash" keng targ'ib qilinmoqda. Bu ma'lumotlar o'zbek kurashini jahon miqyosidagi juda yorqin istiqbollar kutayotganidan yaqqol dalolat beradi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin sportning ko'p turlaridan yuqori natijalarga erishdik. Masalan: kurash bo'yicha jahon chempionlari Toshtemir Muhamadiev, Kamol Murodov, Akobir Qurbonov, Maxtumkuli Mahmudov, Isok Axmedov, Baxrom Avazov va boshqalar. Fristayl bo'yicha Olimpiya chempioni Nina Cheryazova va ko'pgina sportchilar yuqori natijalarga erishdilar. O'zbekiston Respublikasi 1994 yili Xirosimada bo'lgan XII Osiyo o'yinlarida ilk bor qatnashdilar.

Yurtimizning sportchilari birinchi marta sportning 24 turida (120 sportchi) qatnashdi. I.Kireev 2 ta "oltin" medalni Boydarkada, 500 va 1000 metr musobaqasida oldi. Yunon-Rum kurashi bo'yicha 68 kg da G.Pulyaev, "kumush" medal sovrindori bo'ldi. Futbolchilarimiz "oltin" medalga sazovor bo'lishdi va ko'pgina sportchilarimiz medallar bilan qaytishdi.

Xullas kelajak avlodni har tomonlama rivojlangan, baquvvat, jasur, kuchli, botir qilib tarbiyalab Vatan mudofaasiga labbay deb javob beruvchi qilib tayyorlashimiz kerak. Umid qilamizki, kelajakda millatimiz o'g'il-qizlari sportning barcha turlaridan ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib mustaqilligimizning sportdagi shon-shuhratini dunyoga taratadi.

Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 1011-1016.

Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – C. 333-338.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 242-249.

Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020. 01410. X.

Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch siaftlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).

Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

Ashrapovich, N. F. (2022). FORMS OF CONTROL OVER THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE TRAINER AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 372-379.

Narzullayev, Farrux Ashrapovich, and Dinara Olimovna Begimkulova. "Sport psixodiagnostikasi fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari." *Science and Education* 3.4 (2022): 1724-1730.

Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – T. 10. – C. 470-471.

Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – C. 1212-1220.

Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.

Abdueva S. S. Activities that increase children's interest in the sport of handball //Innovatsionnoerazvitiienauki I obrozovaniemejdunarodnayanauchno-prakticheskayakonferensiya. – 2020.

Rasulovna S. N. THE PLACE OF PHYSICAL TRAINING AND SPORTS IN THE LIFE OF SCHOOL STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 306-312.

Rasulovna S. N. TOOLS FOR DEVELOPING SPECIAL PHYSICAL TRAINING AND PHYSICAL QUALITIES IN SPORTS GAMES //E-Conference Globe. – 2021. – C. 299-305.

Sabirova Nasiba Rasulovna. Basics and Advantages of Individual Training to Increase Technical and Tactical Training of Basketball Players. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022

Akmalovich, D. B., Khalilovich, T. M., Rasulovna, S. N., & Savrievich, F. F. (2020). Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 466-469.

Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).

Усмонов, Ш. Х., Самадов, С. С., & Фармонов, А. Ч. (2021). Физкультурно-спортивные интересы и мотивационные установки студентов. *Вопросы науки и образования*, (4), 129.

Xujamurodovich, U. S. (2022). CORRECTIONS IN JUMPING IN THE DEFENSIVE BLOCK AGAINST AN OPPONENT IN VOLLEYBALL. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 442-450.

Azimovna F. M. The quality assessment technology and development techniques in volleyball players //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 242-248.

Azimovna F. M. et al. Educational importance of physical education, sports and health measures in higher educational institutions //E-Conference Globe. – 2021. – C. 321-325.

Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 11. – C. 99-103.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.

Салимов, Г. М., Дустов, Б. А., Фарманов, У. А., & Рахмонов, Р. Р. (2020). Показатели констатирующего этапа экспериментальной работы по физическому развитию учеников 7-10 лет общеобразовательных организаций Узбекистана. *Педагогическое образование и наука*, (1), 91-97.

Akmalovich, Dustov Bakhtiyor. "Acmeological peaks of a sports teacher and coach." *Middle European Scientific Bulletin* 11 (2021).

Akmalovich, D. B. (2020). Organization of independent work of students in the process of physical education. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(11), 120-123.

Safarova Rokhat G. Ways and factors of optimization of the content of general secondary education in today's world // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-and-factors-of-optimization-of-the-content-of-general-secondary-education-in-today-s-world> (дата обращения: 09.05.2022).

Мухитдинова Н.М. Абитова Ж.Р. Механизмы интеллектуального развития дошкольников с помощью физических занятий // Проблемы педагогики. - 2020- № 3 (48) с 79-81

Мухитдинова Н.М. Методология физических упражнений и игр в дошкольных образовательных организациях // Проблемы науки-2020-№9 (57) с 81-83

Мухитдинова Н.М. Эшов Э. Improvement of psychology and pedagogical process on physical training // Intellectual Archive 2018 с 93-96

Djurayeva Maxasti Zokirqizi "The emotion training system for atudents of preschool education for sports gymnastics sports competitions" 88-101 betlar. International Journal of Advanced Research in Monagement and Social Sciences. Vol.1 №2 February 2022

Джураева Махасты Зокировна "Характеристика эмоционально –волевой готовности личности к спортивной деятельности" 169-171 betlar. Россия-Таджикистан –Узбекистан. молодежь и развитие духовной культуры общества: актуальные проблемы и перспективы их решения. 22апреля 2022г.

Маъмуров Б. Б. Бўлажак ўқитувчиларни шахсга йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини лойиҳалашга тайёрлашда қўлланиладиган тамойиллар. Современное образование (Узбекистан), 2017. <https://cyberleninka.ru/article/n/b-lazhak-ityuvchilarni-shahsga-y-naltirilgan-talim-tarbiya-zharayonini-loyi-alashga-tayyorlashda-llaniladigan-tamoyillar>

Mamurov B. B. The Need to Prepare Future Teachers to Design a Student-Centered Educational Process. Eastern European Scientific Journal, 2017. <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/600/596>

Мамуров Б.Б., Махмудов М.Х. Акмеологическая составляющая образовательной культуры учителя. философские и методологические. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36679921>

В Mamurov, A Mamanazarov, K Abdullaev, I Davronov. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students. III International Scientific Congress Society of Ambient ..., 2020. <https://www.atlantis-press.com/proceedings/isc-sai-20/125937241>

ББ Мамуров. Акмеологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков. Педагогическое образование и наука, 2016. http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped_obraz/n2016_03.pdf#page=147

Маъмуров Б.Б. Маманазаров А.Б. Условия развитие у будущих учителей навыков проектирования учебного процесса на основе акмеологического подхода. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37269472>

Файзиёв Я. З., Зиёев Д. Я. У. краткий исторический обзор развития физического воспитания и спорта //Academy. – 2020. – №. 9 (60).

Файзиёв Я. З., Кузиева Ф. Эффективности использования национальных средств физического воспитания в учебном процессе //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-1. – С. 95.

U. A. Fayzieva, M. T. Khikimova. Conditions of effectiveness of pedagogical communication. <https://mbukckslg.ru/en/usloviya-uspeshnogo-pedagogicheskogo-obscheniya-ego-funkcii-organizatsiya.html>

Fayziyeva Umida Asadovna Saidnazarova Gulshan Bolta qizi. "Ta'lim texnologiyalari" fanidan seminar mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma. http://213.230.96.51:8090/files/ebooks/Iqtisodiyot/TALIM_TEXNOLOGIYALARI.pdf